



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
Xilola Nematovna Ochilova Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
ИНВЕСТИЦИЯ	
Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
Зариф Юсупович Аминов Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
То’лиқин Ismatulla o’g’li Yahyoyev Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
Шахриёр Шодиёрович Тураев Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Feruz Kubaymurodovna Ismoilova Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
Khasan Khankeldiyev, Shakhrukh Bobojanov A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

ИНВЕСТИЦИЯ

Musurmon Axmadovich A'zamov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va aniq fanlar kafedrasida assistenti

Ra'no Sherali qizi Xoliqulova – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

Muzaffar Janobiddinovich Suyunov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti 1-kurs talabasi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSİYALARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarni o‘rni, ahamiyati, investitsiyalarning nazariy asoslari tadqiq qilingan. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun investitsiyalarning ahamiyati, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish investitsiyalarning xususiyatlari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: moddiy investitsiyalar, moliyaviy investitsiyalar, aqliy investitsiyalar, ichki va xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalar muhim ahamiyat ega hisoblanadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya’ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o‘sishi ko‘p jihatdan mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarga bog‘liq. Ayniqsa, bugungi kunda har qanday mamlakatning bozor tamoyillari asosida rivojlanishi investitsiyalarni jalb etish holatiga bog‘liq. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayoni va xalqaro kapital harakatining kuchayishi rivojlanayotgan mamlakatlar va mintaqalar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta istiqbollarni yaratdi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida O‘zbekiston va uning mintaqalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muammosi yangi strategik ustuvorliklarni ishlab chiqishni talab qildi. Shuning uchun hozirgi kunda mamlakatimizdagi faol investitsion siyosat olib borishdagi islohotlarning izchilligiga ustuvorlik sifatida asosiy e’tibor qaratish muhimligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan”¹, – deb e’tirof etib o‘tdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyati to‘g‘risida iqtisodchi olimlar o‘rtasida xilma-xil fikrlar mavjud. Investitsiyalarga tugallangan bir ta’rif berilmagan. Har bir tadqiqotchi ushbu kategoriyaga nisbatan o‘z yondashuv uslubi va fikriga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Investitsiyalarga juda ko‘p ta’rif berilgan. Jumladan, prof. D.G. G‘ozibekov investitsiyalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini moliyaviy kategoriya sifatida talqin etib, quyidagicha ta’rif berib o‘tgan: “Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag‘lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko‘zlangan samarani olishdan iborat bo‘ladi”². Prof. N.H. Haydarov investitsiyalar mazmun-mohiyatiga quyidagi ta’rifni beradi: „Investitsiya mulk shaklidan qat’iy nazar tadbirkorlik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning ijtimoiy va iqtisodiy samara olish maqsadida o‘z boyliklarini qonun doirasida bo‘lgan har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir”¹.

Rossiyalik iqtisodchi-olima L. Igonina tomonidan: „Investitsiyalar pulni saqlash, ko‘paytirish yoki ijobiy miqdordagi daromadni ta’minlashni hisobga olgan holda uni

¹ Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisra Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.

² G‘ozibekov. D. G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 26-bet.

¹ Haydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi I.f.n ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya-T., 2003. 29-b

joylashtirish mumkin bo‘lgan har qanday vosita sifatida ifodalanadi”¹ deb ta’riflangan. “Investitsiya” darsligining muallifi, professor A. Neshitoy investitsiyalarning mazmunini quyidagicha tavsiflaydi: „Foyda olish yoki boshqa samaralarga erishish maqsadida o‘z yoki o‘zga mamlakatning turli tarmoqlariga tadbirkorlik loyihalari, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar hamda innovatsiya loyihalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan pul mablag‘larini (kapitalni) uzoq muddatga joylashtirishdir”². „Investitsiyalar iqtisodiy foyda va ijtimoiy samara olish maqsadida investitsiya sohasi obyektlariga kiritiladigan barcha turdagi mulkiy va intellektual boyliklarni aks ettiradi”³. „Investitsiyalar deganda, foyda (daromad) olish va investorlarning individual maqsadlari singari ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalariga, tadbirkorlik va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga muayyan muddatga kapitalning maqsadli yo‘naltirilgan qo‘yilmasi shaklida amalga oshiriladigan xarajatlar yig‘indisi tushuniladi”⁴. Xorijlik iqtisodchi-olimlardan U. Sharp, K. Eklund, Kempbell R. Makkonell, Stenli L. Bryu kabilar investitsiyalarning mazmun-mohiyati yuzasidan turlicha ta’riflarni bayon etishgan. Jumladan, Nobel mukofotining iqtisodiyot bo‘yicha laureati (1990-yil) U. Sharp ta’kidlashicha: „Investitsiyalar kelgusida (ehtimol, nomuayyan) qiymatlik olish maqsadida hozirgi vaqtda muayyan qiymatlikdan voz kechishdir”⁵. “Moliyaviy investitsiyalar daromad olish (xuddi foizlar, dividendlar va ijara haqi singari) va asosiy kapital qiymatini ko‘paytirish maqsadida mohiyat jihatdan qimmatli qog‘ozlarga (aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar), ya’ni moliyaviy aktivlarga joylashtirilgan kapital moliyaviy investitsiyalarni anglatadi”⁶.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqaro va ichki investitsiyalarni jalb qilish va mavjud tendensiyalar orqali Samarqand viloyatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalarni jalb qilish muayyan darajadagi ilmiy yondashuvlarini talab etadi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Ma’lumki investitsiyalarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi turmush farovonligini oshirish hamda inson kapitalini rivojlanishida , iqtisodiyotni divesifikatsiyalashda va moderinizatsiyalashda alohida ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, investitsiyalarni jalb qilishda yagona davlat qonunchiligi emas balki, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib qonuniy ba’zani qaytadan ko‘rib chiqishga e’tibor berilmoqda. Natijada investitsiya oqimi yildan-yilga oshib bormoqda.

1-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (joriy narxlarda. mlrd. so‘mda)

Yillar	2011	2015	2019	2023	2024-yil yanvar-dekabr
Samarqand viloyati	1345,6	3237,2	10266,7	25717,1	29652,5
Samarqand Shahar	508,4	1695,7	4113,1	6236,2	9968,8
Kattaqo‘rg‘on shahar	4,4	55,3	159,1	292,4	703,6
Oqdaryo tumani	24,6	95,1	605,9	549,2	629,5
Bulung‘ur tumani	20,2	73,1	333,0	730,4	769,4
Jomboy tumani	23,7	105,5	394,4	893,5	1716,3
Ishtixon tumani	22,0	85,6	458,6	475,8	650,0
Kattaqo‘rg‘on tumani	23,7	116,4	177,2	6501,8	1542,7
Qo‘shrabot tumani	173,1	186,3	533,7	630,6	915,7

¹ Igolina .L.L Инвестиции. Уч. пос-М Экономист. 2005. С. 23

² Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К0, 2006. С. 13.

³ Староверова Г.С., Медведов А.Ю., Сорокина И.В. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. С. 11.

⁴ Подшиваленко и др. Инвестиции. Учеб. пос.3-е изд. – М.: КНОРУС, 2006. С. 7.

⁵ Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. сангл.–М.: Инфра-М, 1997. С. 16, 979 с.

⁶ Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К0, 2006. С. 14.

Narpay tumani	27,2	78,4	180,0	502,5	674,3
Payariq tumani	37,8	97,3	171,3	619,4	1556,6
Pastdarg‘om tumani	33,4	107,8	577,7	1952,8	1869,9
Paxtachi tumani	17,6	68,6	268,8	426,0	689,4
Samarqand tumani	33,4	162,6	640,4	2843,8	2356,6
Nurobod tumani	23,7	76,2	373,2	1062,0	3416,6
Urgut tumani	84,4	144,6	767,0	1192,4	1180,2
Toyloq tumani	25,5	88,7	484,9	808,3	1012,8

Manba: muallif ishlanmasi stat. uz ma’lumotlari asosida

Viloyatining asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarni tahliliga e’tibor qilsak, viloyatda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2011-yilda 124.2%ga o‘sgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2015-yilda o‘tgan yilga nisbatan 127.4% ga o‘sgan. 2019-yilda esa o‘tgan yilga nisbatan 145,4%ga o‘sgan. 2023-yilda esa o‘tgan yilga nisbatan 136%ga o‘sgan. 2024-yil esa oxirgi o‘n yillikga nisbatan 1167.2%ga o‘sgan. Samarqand shahrida esa asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar tahlil qilinganda 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 132.8%ga o‘sgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 132.7%ga o‘sganini ko‘rish mumkin. 2019- yilga kelib bu ko‘rsatkich 162.4%ga o‘sgan. 2023-yilda esa o‘tgan yilga nisbatan 116.8%ga o‘sgan. 2024-yilga kelib esa oxirgi o‘n yillikga nisbatan 780.3 % ga o‘sgan. Kattaqo‘rg‘on shahrida esa asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar esa 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 220.5%ga o‘sgan bo‘lsa 2024-yil oxiriga kelib oxirgi o‘n yillikga nisbatan bu ko‘rsatkich 2353.2%ga o‘sgan. Tumanlar kesimida esa Oqdaryoda oxirgi o‘n yillikda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar esa 8506.8% ga o‘sgan. Bulung‘ur tumanida esa asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar esa 2011-yilga kelib o‘tgan yilga nisbatan 114.4%ga o‘sgan bo‘sa 2024-yil oxiriga kelib esa bu ko‘rsatkich oxirgi o‘n yillikga nisbatan 1229.1%ga o‘sgan. Jomboy tumanida esa 2011- yilda asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar esa o‘tgan yilga nisbatan 123.2%a o‘sgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich oxirgi o‘n yillikga kelib 2715.7%ga o‘sgan. Qolgan barcha tumanlarda ham asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar o‘sganini ko‘rish mumkin. 1-jadval

2-jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar
(joriy narxlarda. mlrd. so‘mda)

Yillar	2011	2015	2019	2023	2024-yil yanvar-dekabr
Samarqand viloyati	407,9	912	2674,9	6177	6972,1
Samarqand Shahar	890,2	2559,3	7584,5	10770	16881,9
Kattaqo‘rg‘on shahar	121,4	659,1	1795,7	3105,7	7374,9
Oqdaryo tumani	197,6	655	3856,8	3209,2	3593,2
Bulung‘ur tumani	147,9	430	1804,9	3657	3764,2
Jomboy tumani	207,4	686,4	2324,1	4773,6	8948,4
Ishtixon tumani	138,8	372,3	1830,7	1742,8	2329,1
Kattaqo‘rg‘on tumani	144,2	467,1	657,3	22353,9	5197,9
Qo‘shrabot tumani	1920,7	1562,9	4114,9	4488,6	6399
Narpay tumani	166,6	400,2	855,1	2229,3	2938
Payariq tumani	145,3	474,1	693,8	2293,1	5627,8
Pastdarg‘om tumani	91,3	213,1	1652,5	5150,7	4823
Paxtachi tumani	362,4	1220,7	1885	2818,6	4494,2
Samarqand tumani	264	331	2572,9	10529,9	8547,7
Nurobod tumani	312,4	709,2	2513,2	6595,6	20807,8
Urgut tumani	129,5	32,1	1531,2	2158,2	2085,5
Toyloq tumani	166,7	487,6	2446,5	3700,8	4527,6

Manba: muallif ishlanmasi stat.uz ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Viloyat aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar tahlil qilinganda 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 118,6%ga o‘sgan bo‘lsa, 2015-yilda o‘tgan yilga nisbatan 124,9%ga o‘sgan. 2019-yilga kelib o‘tgan yilga nisbatan 142,4%ga o‘sgan. 2023-yilda esa aholi jonboshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar o‘tgan yilga nisbatan 133,1%ga o‘sgan. 2024-yil dekabr oyiga kelib esa oxirgi o‘n yillikga nisbatan aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 955,1%ga o‘sgan. Samarqand shahrida esa aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 118,1%ga o‘sgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 141,8%ga o‘sgan. 2019-yilda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 159,9%ga o‘sgan. 2024-yil dekabr oyiga kelib esa bu ko‘rsatkich oxirgi o‘n yillikga nisbatan 935,5%ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Kattaqo‘rg‘on shahrida esa aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 216,8%ga o‘sgan bo‘lsa 2015-yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 182,1%ga o‘sgan. 2019-yilda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 130,5%ga o‘sgan. 2024-yil dekabr oyiga kelib esa bu ko‘rsatkich oxirgi o‘n yillikga nisbatan 2037,3%ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Oqdaryo tumanida esa aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 101%ga o‘sgan bo‘lsa 2015-yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 125,7%ga o‘sgan. 2019-yilda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 179,2%ga o‘sgan. 2024-yil dekabr oyiga kelib esa bu ko‘rsatkich oxirgi o‘n yillikga nisbatan 689,5%ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. Bulung‘ur tumanida esa aholi jon boshiga o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2011-yilda o‘tgan yilga nisbatan 111,6%ga o‘sgan bo‘lsa 2015-yilga kelib bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 114,1%ga o‘sgan. 2019-yilda bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 139%ga o‘sgan. 2024-yil dekabr oyiga kelib esa bu ko‘rsatkich oxirgi o‘n yillikga nisbatan 998,7%ga o‘sganligini ko‘rish mumkin. (2-jadval)

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, “Investitsiyalar yangi ish o‘rinlarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta‘minlash uchun, aholini daromadlarini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi”¹.

Investitsiyalarni bozor iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati uchun quyidagi takliflarni berish mumkin:

- Investitsion muhitni yaxshilash-ya‘ni huquqiy kafolatlarni mustahkamlash, korrupsiyani kamaytirish va investorlar uchun qulay sharoit yaratish zarur;
- Mahalliy va xorijiy investorlar uchun imtiyozlar berish-ya‘ni sooliq yukini kamaytirish, kredit resurslari va subsidiyalar orqali investitsiyalar hajmini oshirish mumkin;
- Innovatsion va yuqorri texnologiyali loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash;
- Infratuzilmani rivojlantirish;
- Kapital bozorini rivojlantirish;
- Hududiy investitsiyalarni rag‘batlantirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisra Murojaatnomasi. 2018-yil 28-dekabr.
2. G‘ozibekov. D. G‘ Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – T.: “Moliya” nashriyoti, 2003. 26-bet.
3. Haydarov N.X. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi soliq munosabatlarini takomillashtirish masalasi I.f.n ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya-T.,2003. 29-b
4. Igolina .L.L Инвестиции. Уч. пос-М Экономист. 2005. С. 23
5. Нешиной А.С. Инвестиции. Учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К0, 2006. С. 13.
6. Староверова Г.С., Медведов А.Ю., Сорокина И.В. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. С. 11.

¹ A.U. Burxanov, Sh.X. Muminov, X.X. Xudoyqulov „Investitsiyalar va innovatsiyalar“ darslik

7. Подшиваленко и др. Инвестиции. Учеб. пос.3-е изд. – М.: КНОРУС, 2006. С. 7.
8. Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции. Пер. сангл.–М.: Инфра-М, 1997. С. 16, 979 с.
9. Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К0, 2006. С. 14.
10. А.У. Burhanov, Sh.X. Muminov, X.X. Xudoyqulov „Investitsiyalar va innovatsiyalar” darslik

<p>М.Азамов, Р.Холикулова, М.Суюнов Роль и значение инвестиций в условиях цифровой экономики</p>	<p>M. Azamov, R.Kholikulova, M.Suyunov The role and importance of investments in a market economy</p>
<p>Аннотация. В данной статье рассматриваются роль и значение инвестиций в рыночной экономике, а также их теоритические основы. Освещается значение инвестиций в социально-экономическом развитии регионов, особенности инвестиций в основной капитал, на душу населения, комплексные меры стимулирования производства.</p> <p>Ключевые слова: материальные вложения, финансовые вложения, интеллектуальные вложения, отечественные и зарубежные инвестиции, портфельные инвестиции.</p>	<p>Abstract. This article examines the role and importance of investments in a market economy, as well as their theoretical foundations. It highlights the importance of investments in the socio-economic development of regions, the specifics of investments in fixed capital, per capita, and comprehensive measures to stimulate production.</p> <p>Keywords: material investments, financial investments, intellectual investments, domestic and foreign investments, portfolio invesments.</p>

UDK: 339.168

Ozodbek Shuhrat o‘g‘li Jumaqulov – SamISI, “Investitsiyalar va innovatsiyalar” kafedrası doktoranti

INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

<p>Аннотасија. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida investitsion jozibadorlikni oshirishning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’siri bilan bir qatorda, respublikada yaratilayotgan investitsion muhitning o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Sir emaski, globallashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda jahon bozorida o‘z o‘rnini egallash va kuchli raqobatga bardosh bera oladigan yangi mahsulot va xizmat turlarini yaratish hamda mavjud ishlab chiqarish va xizmatlarni innovatsiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada investitsiyalarning iqtisodiyotimizdagi o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilib, tegishli taklif va xulosalar berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: investitsiya, iqtisodiyot, iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhiti, baho, hajm, miqdor ko‘rsatkichlari, sifat ko‘rsatkichlari, “Maqbul investitsiya muhiti”, investitsiya siyosati.</p>

Кирш. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining taraqqiyoti bevosita investitsiyalar oqimining qay darajada rivojlanayotganligiga bog‘liq. Harakatlar strategiyasida ilgari surilgan g‘oyalarni hayotga joriy etish, ushbu g‘oyalar asosida mamlakat iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan o‘zgartirish, tarmoqlar va sohalarni modernizatsiya qilish, tizimni texnik hamda texnologik yangilashga doir masalalarni ilgari surishda yangidan-yangi investitsiya oqimlarni jalb qilish dolzarb masalalardan biridir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “... qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan bo‘ladi, shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyotning drayveri, - o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi [1].

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasining 5 ta asosiy g‘oyasidan biri bo‘lgan ushbu maqsadga erishish bo‘yicha davlatimiz rahbari boshchiligida tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Soha va tarmoqlarni transformatsiya qilish jarayonlari faol amalga oshirilmoqda. Hududlarning o‘ziga xos

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.